

## QUYONLARNING GO'SHT MAHSULDORLIGI, GO'SHT TARKIBI VA TO'YIMLILIK QIYMATI

*Ilmiy rahbar: Sarsenbayev Quwatbay*

*Bakalavr: Duysenbayeva Rayxan, Mamutova Sarbinaz*

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada quyonlarning parxezbop go'shtining xalq xo'jaligidagi ahamiyati, quyon go'shtining tarkibi va to'yimlilik qiymati o'rganilib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Quyon go'shti, parxezbop go'sht, yog', oqsil, xolesterin, nimta, davlat standartlari, navlar, semizlik toifalari.

Insonlarning oziq-ovqat iste'molidagi go'shtning o'rni beqiyos va albatta ratsion tarkibida bo'lishi shart. Uni tarkibida organizm uchun zarur bo'lgan oqsillar, yog'lar, mineral moddalar shuningdek, A, D va B guruhidagi vitaminlar mavjud. Go'shtning oziqaviy qiymatini tarkibidagi to'laqiyatli oqsillar; globulin, albumin, miozin va boshqalar belgilaydi. Organizmda hazmlanish koeffitsienti 95 foizni tashkil etadi.

Quyon go'shti juda muloyim, xushtam chunki parranda go'shtiga nisbatan to'liq qiymatli oqsillarga boy. Shuning uchun yosh bolalarga, keksalarga, bemorlarga va xaddan ziyod semirgan kishilarga ham shifoli, parvez oziq-ovqat sifatida tavsiya etiladi.

Tarkibidagi oqsil jihatidan faqat kurka jo'jasidagi go'shtidan orqada qolishi mumkin. Quyon go'shtining tarkibidagi oqsil inson organizmi tomonidan 90 % o'zlashtiriladi. Bu ko'rsatkich qoramol go'shtida 62 % ni tashkil etadi. Quyon yog'i tez eruvchan, sifati bo'yicha qoramol, cho'chqa, qo'y go'shti yog'laridan ustunroq turadi.

Quyon go'shtida natriy moddasi parranda go'shti tarkibidagiga nisbatan 2,7 marta, buzoq go'shtidagidan esa 2,4 marta kam. Bu holat quyon go'shtida xolesterin moddasining kam to'planishini ta'minlab, shifobaxshligiga sabab bo'ladi.

Quyonlarning tirik vazniga nisbatan 70 % ni, qoramollarda esa 42-50 % ni muskul tolasi, suyak va tog'aylar esa quyonlarda 13-36 % ni, qoramollar nimtasida esa 18-30 % ni tashkil etadi.

Quyon bolalarini 70 kunligida tirik vazni 2 kg bo'lib, shu vaqtida ulardan broyler go'shti olinadi. Bunda go'shtining tarkibida 22 % gacha oqsil, 5 % gacha yog' bo'ladi.

Voyaga yetgan quyonlar go'shtida 19-21 % oqsillar, yog' esa semiligiga ko'ra 2-18 % gacha bo'lishi mumkin. Turli hayvonlarning 100 g yog'i va go'shtining tarkibidagi xolesterinining miqdori kuyidagicha:

Qoramollarda      37-48 mg

Tovuqlarda	35-108 mg
Cho'chqalarda	74-126 mg
Buzoqlarda	38-83 mg
Quyonlarda	25 mg

Keyingi yillarda insonlarning sog'lom turmush tarzi va parxez oziq-ovqatlarga bo'lган talabi ortib bormoqda. Tarkibida oqsil miqdori ko'p, ammo yog' miqdori kam saqlaydigan oq rangli parranda go'shti iste'moli ommalasha boshladи. Lizin va triptofan kabi almashinmaydigan aminokislotalar quyon go'shti tarkibida eng ko'p miqdorda uchraydi. Quyon go'shti ham oq rangli go'sht toifasiga mansub bo'lib, kimyoviy tarkibi bo'yicha parranda go'shtiga o'xshash. Parranda va quyon go'shti o'rtasida parxeboplilik xususiyatlari bo'yicha farq borligini aniqlashgan.

Birinchidan quyon go'shti tarkibida natriy tuzlari parranda go'shtiga nisbatan kam miqdori uchraydi

Ikkinchidan organizmida go'shtning hazmlanish jarayonida cho'kma hosil qiladigan azot birikmalarini saqlamaydi.

Quyon go'shti boshqa turdagи hayvonlar go'shtiga nisbatan vitamin va minerallarga boy bo'ladi. O'rtacha 100 gramm quyon go'shtida 67 g suv, 21,2 g oqsil, 11,0 g yog', 0,8 g kul muddasi, 0,8 mg vitamin S, 0,79 mg vitamin E, 6,2 mg RR uchraydi. Quyon go'shtining sifati bo'yicha, simob (Hg), kadmiy (Cd), mishyak (As), qo'rg'oshin (Pb) kabi toksin xossal elementlar miqdori belgilangan me'yordan ancha kam, hazmlanishi qiyin bo'lган yog' miqdorining ozligi, quyon go'shtinining yosh bolalarni oziqlantirishda muhim ahamiyatga ega.

**Xulosa:** Hozirgi kunda chorvachilik hayvonlarining go'shtiga bo'lган talab kun sayin ortib borayotganini hisobga olsak quyon go'shti iste'molini ommalashtirish xalqga quyon go'shti foydalari haqida kengroq tavsiyalar berish lozim va quyonchilikni ommalashtirish zarur.

### Foydalanaligan adabiyotlar

1Ballasov U., Mamatiminov Sh. Quyonchilik. 0'quv qo'llanma. ToshDAU, tahririyati nashriyoti, 2016 yil.

2 Qo'ziyev I.A, Qo'chqorov A.X. Quyon va nutriya go'sht mo'yna. 0'quv qo'llanma. Toshkent, Dizayn-Press, 2013yil.

3Исмаилов М.Ш., Бозоров С.Р., Ибрагимов Б.Б. Күёнчилик Амалий қўлланма Самарқанд 2019. 148 б

4Исмаилов М.Ш., Ибрагимов Б.Б., Ҳайдаров Э.И., Шокиров Л.Х. Фермер ва шахсий хўжаликларда қўёнларни урчиши, озиқлантириш ва сақлаш бўйича тавсиянома Самарқанд-2020 64 б